

Qo'yqirilgan qal'a va uning tadqiqot tarixi

Idrisov Imalatdin Regan uli
Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi,
Salamat Arepbaevich Sulaymanov
Tarix fanlari doktori, dotsent.

Annaotatsiya: Maqolada Qo'yqirilgan qal'aning tadqiqot tarixi va undan topilgan topilmalar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qo'yqirilgan qal'a, "Asbaraq", S.P.Tolstov, A.Yu. Rapoport, M.G. Vorobyova, Sirius, ossuariy

KIRISH:

O'tgan davr mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ko'plab tarixiy qal'alar, yodgorliklar qayd etildi va chuqur tadqiq qilindi. Bu tadqiqotlar esa Qoraqalpog'istonda juda qadim zamonlardan o'ziga xos madaniyat shakllanganligini ko'rsatib qo'ydi. Aynan mana shunday takrorlanmas yodgorliklarning biri Qo'yqirilgan qal'a yodgorligi bo'lib chiqdi.

Qo'yqirilgan qal'a - taxminan ikki yarim ming yil ilgari bunyod etilgan jahon madaniyatining mashur yodgorliklaridan biri. To'rtko'l shahridan 22 km shimoliy-sharqida joylashgan bu bebaho xazina qadimgi Grek va Rim madaniyatining durdonalari bilan bir qatorda turadi. Erta zamonlarda qumlar arosida qolib ketgan bu yodgorlikni tabiyatning uzi qadrlab, uni bizning kunlarimizgacha yaxshi saqlanib kelgan. Ikki qavatli qurilishning birinchi qavatining taxminan ikki ming yil vaqt to'liq saqlanishi uning yaqqol dalili bo'la oladi.

Ilk Qo'yqirilgan qal'a (mil.av.IV-III asrlar) butun inshootning mahobati bilan, jumaladan markaziy binosi, mudofaa tizimining rivojlanganligi va katta omborlari bilan ajralib turgan. Ushbu omborlardagi tamg'alangan xumlarda va bug'doy saqlash uchun kovlangan chuqurlarda oziq-ovqat mahsulotlari zahiralari saqlangan. Garchi inshoot saqlanib qolmagan bo'lsa ham, unga tegishli mifologik syujetli badiiy sopol idishlari, isiriqdonlar, pog'onali qurbongohlari, ba'zilar Xorazm panteoni ma'budlarini aks ettirgan terrakota haykalchalar saqlanib qolgan. Ko'p yillar davomida yodgorlikning



qarovsiz holati davrida uning katta ibodatxona markazi sifatidagi an'anasi saqlanib qoldi va unga ossuariylar joylashtirildi.

Bino tashqi aylanasi qurilishi -(mil.av.I asr-mil. IV asr) undagi bir biridan alohida joylashgan aholi yashash majmualari, alohida oshxona va omborxonalar, suf va turlli xil o'choqlarga ega diniy marosimlarni o'tkazishga mo'ljallangan xonalar bilan ajralib turadi.

Qazilma ishlari davomida topilgan terakotta va alebastr haykalchalar, sopol suvdondagi relyeflar, haykaltaroshlik sopol savatcha va ossuariylari, devoriy tasvirlar bo'laklari va toshga o'yilgan yozuvlar Qadimgi Xorazmning o'ziga xos san'atini ask ettiradi. Ushbu topilmalar orasida Markaziy Osiyoga oid qadimgi qo'lyozmalarning namunalari ham mavjud.

Qala ilmda birinchi marotaba 1938-yili aniqlanib, 1952-1957- yillarda arxeologlar tomonidan to'liq tadqiqot ishlari olib borildi. Markaziy Osiyoning qadimgi arxitekturaviy madaniyatining choqqilarining biri bo'lgan Qo'yqirilgan qal'a oldin tayyorlangan reja bo'yicha diametri 90 metr doira shaklida solingan. Qal'a atrofida ikki qavatli o'q otish dahlizi bo'lib, ikki qator (tashqi va ichki) qo'rg'on devorlar bilan qurshalgan. Uning devorlari bo'ylab sakkiz joyda topxonalar urnatilgan. Qo'rg'on devorlarni aylantirib eni 15 m, terangligi 3 m or qazilib, u suv bilan tuldirilgan. Qo'yqirilgan qal'aning qurilish ishlarida Amudaryoning quyi sohilidagi xalqlar bilan aloqada qo'shni sak-massaget qavmlarining tasiri kuchli bo'lgan. Tarixning otasi bo'lgan Gerodotning yozishi buyicha "kun" massagetlarning bosh xudosi bolgan. Shunday qilib "Xorazm" so'zining o'zi qadimgi Eron tilida "Kun vatani" degan ma'noni anglatgan. Qal'aning asosiy aholisi bo'lgan jrets-astronomlar ularning xizmatkorlari, qal'aga kelgan sayoxatchi-ziyoratchilar qo'rg'on ichida xramni aylantirilib solingan joylarda yashagan. Shuning uchun devorlari qalin pahsa loydan solingan bu joylar yozda salqin, qishda issiq yashashi uchun juda qulay qilib solingan. Eramizdan oldingi III asrga tegishli qal'adan topilgan yozuvdagi "Asbaraq" yoki "Aspadak" xramning shu vaqtdagi bosh jretsi va astronomi bo'lishi ehtimol. Qal'a aholisi astronomik tadqiqot natijasida mahalliy xalq madaniyat, adabiyot, xunarmandchilik, dexqonchilik bilan shug'ullangan. Shunday qilib bizning eramizga qadar IV-II asrlarda mavzoley- xram astronomik markaz xizmatini bajargan Qo'yqirilgan qal'a antik davrning eng ajoyib durdona yodgorligi xisoblanadi.

"Qo'yqirilgan qal'a" so'zining etimologiyasi sodda bolib, u XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan. Professor S.P.Tolstovning aytishicha yodgorlik ichida olib qolgan qoyga bogliq qoyilgan atama. Shunday voqea Qo'yqirilgan qal'aning sharq tarafida, uzoq emas joyda joylashgan ikki yodgorlikda joy olib, ular ilmga "Qoziqirilgan qala I" va "Qoziqirilgan qala II" degan atamalar bilan kiritildi. Bizningcha Qo'yqirilgan qal'adan topilgan yozma ma'lumotlar asosida qal'ani Aspabaraqning qal'asi deb nomlasak boladi.

Qo'yqirilgan qal'ani qazib tadqiq qilgan A.Yu. Rapoport M.G. Vorobyova va boshqalar bu ulkan qo'rg'on yoki sulola markazi deb taxmin qilgan edi. Qo'yqirilgan qal'ani cherkov, Xorazmshohlarni va oqsuyaklarni dafn qilish joyi - daxma, muqaddas e'tiqod o'rni deb ham tan olingan.

Qo'yqirilgan qal'aning ichki qurilishi odamlar yashashi uchun mo'ljallangan. Qo'yqirilgan qal'ada Xorazmshohlar va boshqa zodagonlar vafot etganda, ularning tanasini qal'a ustiga o'tta yoqib, kulini ossuariy idishlariga solib saqlagan.

Qal'a ustidan va uning atrofidan marhumlarning suyaklarini solib saqlaydigan loydan ossuariylar saqlaydigan loydan ishlangan ossuariylar topilgan. Ossuariylar usti qopqoqlari odam suyaklari bilan bezatilgan. Ularni maxsus joylarda saqlab ruxlariga e'tiqod qilgan, diniy marosimlar o'tkazgan. Shu bilan birga, Qo'yqirilgan qal'a astronomik funkstiyani bajargan. Sharq davlatlarida cherkovlarda astronomik kuzatuv ishlarini ruxoniylar olib borish an'anasi bo'lgan. Buni qal'adan topilgan astronomiyalik diametri 22 sm, doira shaklida qurol topilgani buning dalilidir. Amudaryo suv sathining pasayishi va ortishi, eng yorqin yulduz shiqishi bilan aniqlangan. Misrdagi Sirius yulduziga qarab Nil daryosi suvi toshqinlari vaqtini nazorat qilib turganidek, Oldingi Osiyo va Bobil suv qudig'iga ishlanishi



kabi Xorazmda ham suvga e'tiqod katta ahamiyat kasb etgan. Shu bilan bog'liq unumdorlik, mo'lchilik ma'budasi Artvisura Anaxitaga bag'ishlab cherkovlar qurilgan, e'tiqod va diniy marosimlar o'tkazgan.

Qo'yqirilgan qal'a juda murakkab arxitekturaviy qurilish sanaladi. Xuddi shu jihatdan u boshqa qal'alardan ajralib turgan. Undagi ko'pgina detallar va topilgan materiallar tariximizning xali ochilmagan sirlariga yechim bo'la oladi.

Adabiyotlar:

- 1.Ф.Хожаниязов, Ж.Хакимниязов "Қаралпақстанның әжайип жети естелиги" Нөкис -2004
- 2.Кеңесбай Қунназаров " Қаралпақстанның қала хәм районлары " Нөкис - 2016
3. С.П.Толстов " По деревным дельтам Окса и Яксарта" Москва - 1962
- 4.Мамбетуллаев М. М, Туребеков М. "Археология" Нөкис - 2016

